E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Muhammad Yusuf she`riyatida o`ziga xoslik

O`rinov Odilbek Laziz o`g`li

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimiz ardog`idagi va uning nomi qalblarda abadiy yashayotgan Muhammad Yusufning ijodidagi xalqchillik tahlil etilgan. Shoirning quyma misralari allaqachon xalq qo`shiqlariga aylanib ulgirganligi ta`kidlab o`tilgan. Shuningdek, o`zbekning hovlisida qorasoch va qoraqosh bolalarning javlon urib, beg`ubor qalb egalarining o`yin kulgusi to`ldirishini va kattalar ularni ko`ngliga qarashini xalq iborasi bilan aytganda "bola –poshsho", unga itoat etish lozim deb hisoblaydigan xalqning ichki dunyosini ochib beradi va "o`zbekning ayollari, farzand uchun yaralgan" kabi o`xshatmalari alohida e`tirof etilgan.
Kalit so`zlar: Xalqchillik, milliy ruh, vatan, lirik qahramon.
Annotation: This article analyzes nationalism in the work of Muhammad Yusuf, who is proud of our nation and whose name lives forever in our hearts. It has been noted that the poet's verses have already become folk songs. Also, in the yard of the Uzbek, black-haired and dark-eyed children beat the fence, fill the innocent hearts with playful laughter, and adults look at them in the folk saying, "boy-poshsho", the internal of the people who believe that it is necessary to obey him. reveals his world and similes such as "Uzbek women are made for children" are especially recognized.
Key words: Nationalism, national spirit, homeland, lyrical hero.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, adabiyot yoki san'at asarlari jamiyatning butun boshli hayotini ifodalaydi, ma'lum bir estetik tarbiyaviy vazifani bajaradi, shu bilan birga keyingi avlodlar uchun ham ma'naviy boylik sifatida xizmat qiladi. Aytmoqchi bo`lganim, Muhammad Yusuf ijodida yaratilgan she'rlar bugun xuddi ana shunday vazifani o`tamoqda. Shoirning she'rlarini o`qir ekanmiz, unda soddalik, samimiylik, tabiiylik va ayni paytda milliylikning ufurib turganiga guvoh bo`lamiz. Shuning uchun shoirning she'rlarida mavjud milliylik to`g`risida fikrmulohaza yuritishni joiz deb bildim.[1]

Bilamizki, adabiyot xalqning hayoti bilan chambarchas bog`liqdir. U xalqning o`ziga xos va mos urf-odatlarini, ruhiyatini, turmush va yashash tarzini yorqin aks ettiradi. Aynan shu xususiyatlarini aks ettirish adabiyotning milliyligini yuzaga chiqaradi. Xuddi shunday holatlar o`zbek adabiyotining buyuk namoyandalari Abdulla Qodiriy, Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor asarlarining asosini tashkil etadi. Muhammad Yusuf ham ulug` ajdodlarimizning izidan borib, mazkur an'anani davom ettirdi desam, mubolag`a bo`lmas. Shoirning misralariga e'tibor beraylik: Bek yigit bir sening poyingda xorman, Garchi diydoringa mushtoq-u zorman, Men beun sevarman, men jim sevarman, Qiyomatgacha shul sukutdadurman. Sharq xalqlarida, xususan o`zbeklarda shunday bir fazilat borki, yevropa xalqlarida ko`p uchramaydi, u ham bo`lsa, hayo, ibo va andisha. Hech bir o`zbek qizi yoki yigiti o`z muhabbatini oshkor etmaydi, sevganining ko`zi yoki yuziga qaray olmaydi, u sevgisini pinhon tutadı. Asarning lirik qahramoni xuddi shu yo`ldan borib, yuzidagi va ko`nglidagi hayo, ibo pardasini saqlab qoladi. Shu o`rinda asarning nafaqat milliy ruhda yo`g`rilganligi, balki, tarbiyaviy ahamiyati ham oshadi. Shoirning yurak qo`ri bilan yaralgan she'rlariga nigoh tashlar ekanmiz, nafaqat lirik qahramonning yuzida milliylik mavjud, balki ijodkorning yuzi xalqni milliy an'analarga sodiq qolishga undaydi:

Yurtim suluvlari, sizga yo`q taraf,
Qoshingizga o`sma yursa sirg`alib,
Uzun sochingizni o`rsangiz tarab,
Boqsa degan edim oy ham suqlanib.

[1] Vol. 1 No. 2 (2022): Innovative Development in Educational Activities (IDEA) /

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Bugungi kunda o`zlarini “zamonaviy” deb hisoblaydiganlar oramizda ko`plab topiladi, ular yuzlarini go`zal ko`rsatishlari uchun qo`llaridan nima kelsa barchasini amalga oshiryaptilar. Yuz, qosh, ko`z, lablarga sun’iy kimyoviy pardozlarni ayamasdan surtyaptilar. Bu holat milliy, tabiiy pardoz ashyolarimiz hisoblangan –o`sma- surmalardan foydalanish kamayib borayotganini ko`rsatib turibdi. Shoir Muhammad Yusuf ijodini mumtoz adabiyot bilan bog`lash joiz bo`lmasada, ammo bir narsani aytmoqchiman, zamonaviy adabiyot uning zamirida yuzaga keladi. Mumtoz adabiyotga yuz, soch , ko`z, qosh kabi timsollarning o`ziga yarasha vazifalari bor. “Yuz” timsoli ilohiy go`zallik manbasi ramzi hisoblanadi. “Soch” esa dunyo ramzi. “Ko`z” komil inson timsolidir. O`tkir qalam sohibi bu timsollar orqali to`g`ridan to`g`ri o`zbek qizlarining bor bo`yini namoyish etmoqchi bo`ladi. Ularning hayo bilan yuvilgan yuzlarida go`zallikning mavjudligini, ko`zlarida andishali nigoh borligini , qora va sumbul sochlarining jozibasini madh etadi. U yuz , ko`z, soch, qosh timsollari she’riyatda nafaqat badiiylikni oshirish, balki insonlardagi axloq, tarbiya, ma’naviyatni namoyon etuvchi vosita ekanligini ko`rsatib berdi. Yuqoridagi she’rda qizlarga murojaat bo`lsa, «Do`ppi» she’rining quyidagi bandida yigitlarga qarata shunday deydi:

Do`ppi kiymay qo`ydi odamlar,
Bir shoir, bir nosirdan boshqa.

Shoir, hatto Chust, Andijon, Marg`ilon do`ppilarining kiyilmayotganidan, “Mirtemir, G`afur G`ulom kiygan doppilar tokchada qolib ketayotganidan” xavotirga tushadi. U “madaniyat gullagan damlar” ni, qizlarning qoshlariga “sirg`alib yurgan o`smalarni “, o`rilgan uzun sochlarni sog`inadi, ko`ngli esa ularni ko`rmoqni tusaydi, u o`zbek xalqining ko`rinishini, tashqi go`zalligini o`zbekona milliylikni saqlagan holda ko`rishni istaydi. Shuning uchun boshqa misralarida “o`sma o`pgan qoshmi bu zuluk, buncha poksiz, bunchalar suyuk” deydi shoir. Milliylik shundaki, u bir xalqning ma’naviy dunyosi , o`y -xayollari, madaniyatini qamrab oladi. Biz mehmondo`st, to`y-hashamlarni sevadigan, topgan tutganini kelganlar oldiga sochadigan xalqmiz. To`ylarimizda shunday udum bor, uzatilayotgan qiz ota uyini tark etayotganida ko`z yosh to`kadi. Farzand ota-ona bag`rida o`sib voyaga yetadi, butun mehrini ota-onasi, opa-singil, aka-ukaga beradi, shuning uchun qizlarga oilasini tark etish og`ir bo`ladi. Shoir mazkur she’rida shunday yozadi:

Yomg`ir emas, bu xalqob
Kelinchak ko`z yoshidir.
Yig`lama yor, qiz bola
Palahmonning toshidir.

Ijodkor boshqa bir she’rida «O`zbeklarga ayb sanalar faqat kelin yig`lamasa to`yi kuni» [2]degan mulohazalarni aytadi. Aynan shu o`rinlarda milliy ruh yaqqol ifoda etiladi. Har bir millat o`zi yashayotgan joy va zamonda o`ziga xos tartibda amal qilib yashar ekan, u boshqa millat vakillaridan shunisi bilan farqlanadi. O`zbek xalqi ham boshqa millatlardan bir xislati bilan ajralib turadiki, u bolalarni sevadigan, ko`p bolali bo`lishni istaydigan, bir so`z bilan aytganda bolajon xalqdir. Bu haqda shoir shunday deydi:

Suyungandan onalar ko`zida yosh,
Otalar yuzida porlar quyosh.
Nabiralar to`ladi hovlilarda,
Bari bir xil qorasoch-u qoraqosh.

Mohir qalam sohibi o`zbekning hovlisida qorasoch va qoraqosh bolalarning javlon urib, beg`ubor qalb egalarining o`yin kulgusi to`ldirishini va kattalar ularni ko`ngliga qarashini xalq iborasi bilan aytganda “bola –poshsho”, unga itoat etish lozim deb hisoblaydigan xalqning ichki dunyosini ochib beradi va “o`zbekning ayollari, farzand uchun yaralgan” deya ularni madh etadi. Shu o`rinda yana bir narsani aytib o`tish joiz, o`zbekning bolalari shirin allalar-u jimjimador

[2] M.Yusuf “Saylanma” Toshkent- 2012

ranglar va turli bezaklar tushirilgan xilma xil yopinchiqlar bilan bezatilgan beshiklarda voyaga yetadi. Shoir yozadi: Nonushta qiladi erkak va ayol, Yog`och beshik o`rtalarida. Ma'lumki, hatto beshik bilan bog`liq qancha marosimlar mavjud. Chaqaloqni ilk marotaba beshikka solish marosimi deysizmi, beshik to`ylari deysizmi bularning barchasi milliy urf-odatlar bilan bog`liq jarayonlardir. Ziyrak, kuzatuvchan shoirning deyarli barcha she'rlarida yozilishida ham, lirik qahramonlar holatida ham, ularning tashqi va ichki olamida ham milliy ruh ifodasi ko`zga tashlanadi.[3] Zero, shoirning qalbi milliy tuyg`uga, o`z xalqi va yurtiga bo`lgan faxr hissiga va samimiylikka limmo-limdir. Shoir ijodiga nazar tashlar ekanmiz, bir narsaning yaqqol namoyon bo`layotganiga guvoh bo`lamiz, bu samimiylikdir,ya'ni bu xususiyat ijodkorning o`zida ham, lirik qahramonlarida ham yetarli darajada.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Mayli , yoshlar o`z davrining talablari bilan uyg`un bo`lsin. Lekin ayni paytda o`zligini ham unutmasin".[4] Ya'ni yurtboshimiz inson kim ekanligini , qanday ulug` zotlarning avlodi ekanligini esidan chiqarmasligini va bu so`zlar ularning qalbida hamisha aks-sado berib turishi lozimligini ta'kidlaydi. Demak, har bir xatti-harakatimizda o`zbekona ruh sezilib turmog`i kerak. Buyuk munaqqid Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, "Kamdan kam tug`iladigan iste'dod egasi" bo`lgan Muhammad Yusuf o`z she'rlarini xuddi ana shu ruh bilan sug`ordi. Shoirning umri qisqa, biroq abadiy yashaydigan xalqona she'rlari insonlarga milliy o`zlikni anglash hissini, faxr va g`ururlanish xislatlarini shakllantirishga xizmat qiladi, har bir nafasimizda «men o`zbekman » degan muqaddas tuyg`uni muhrlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Yusuf "Saylanma" Toshkent- 2012
2. M.Yusuf "Ulug`imsan , vatanim" Toshkent 2004
3. Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017
4. https//www.mana.uz
5. A.O`rinboyev "Ma'naviyat – millatning kuch-qudrati" Toshkent 2006
6. Sen qachon o`zingni taniysan elim. https://kun.uz.
7.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/muhammad-yusuf-yaxshi

WORDLY
KNOWLEDGE

[3] A.O`rinboyev "Ma'naviyat – millatning kuch-qudrati" Toshkent 2006
[4] Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent 2017